

SUDYA KASBIY HUQUQIY ONGINING SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGI  
VA ADOLAT TAMOYILIDAGI AHAMIYATI

Nishanov Sanjar

*Jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudi tergov sudyasi E-mail:  
sanjarsledak@gmail.com Telefon: +95-946-46-46*

**Annotatsiya:** Maqolada sudya kasbiy huquqiy ongi tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari, uning tarkibiy elementlari hamda sud hokimiyati mustaqilligi va adolat tamoyiliga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – sudya kasbiy huquqiy ongini mustaqil ilmiy kategoriya sifatida asoslash va uning sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligiga bo'lgan ta'sirini aniqlash. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar (xususan, 1998 yildagi Milliy dastur va 2019 yildagi PF-5618 farmoni), milliy va xorijiy doktrina (Islomov, Odilqoriyev, Petrajitskiy, Ross, Abdrassulov va boshq.) hamda tizimli-qiyosiy, doktrinal va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada sudya kasbiy huquqiy ongi huquqiy bilim, kasbiy mas'uliyat, adolat hissi va institutsional mustaqillikdan iborat murakkab tizim ekanligi va uning sud hokimiyati samaradorligini oshirishdagi kalit omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Maqolada amaliy tavsiyalar – sudyalarni tayyorlash, attestatsiya va sud amaliyotiga reflektiv mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** sudya, kasbiy huquqiy ong, sud hokimiyati, mustaqillik, adolat, huquqiy madaniyat, huquqni qo'llash.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретико-правовые основы понятия профессионального правосознания судьи, его структурные элементы, а также влияние данного феномена на независимость судебной власти и реализацию принципа справедливости. Целью исследования является обоснование профессионального правосознания судьи как самостоятельной научной категории и определение его влияния на законность и справедливость судебных решений. В ходе исследования использованы методы анализа нормативно-правовых актов (в частности, Национальной программы 1998 года и Указа Президента № PF-5618 от 2019 года), доктринальный анализ национальных и зарубежных научных источников (Исламов, Одилкорияев, Петражицкий, Росс, Абдрасулов и др.), а также системный, сравнительно-правовой и логико-обобщающий подходы. В результате установлено, что профессиональное правосознание судьи представляет собой сложную систему, включающую правовые знания, профессиональную ответственность, чувство справедливости и институциональную независимость, и является ключевым фактором повышения эффективности судебной власти. В статье предлагаются практические рекомендации, направленные на совершенствование системы подготовки судей, аттестации и внедрение рефлексивных механизмов в судебную практику.

**Ключевые слова:** судья, профессиональное правосознание, судебная власть, независимость, справедливость, правовая культура, правоприменение.

**Abstract:** *The article analyzes the theoretical and legal foundations of the concept of judges' professional legal consciousness, its structural elements, and its impact on judicial independence and the implementation of the principle of justice. The purpose of the study is to substantiate judges' professional legal consciousness as an independent scientific category and to determine its influence on the legality and fairness of judicial decisions. The research applies the analysis of normative legal acts (in particular, the National Program of 1998 and Presidential Decree No. PF-5618 of 2019), doctrinal analysis of national and foreign scientific sources (Islomov, Odilqoriyev, Petrazycki, Ross, Abdrassulov, etc.), as well as systemic, comparative legal and logical generalization methods. The findings demonstrate that judges' professional legal consciousness constitutes a complex system comprising legal knowledge, professional responsibility, a sense of justice and institutional independence, and serves as a key factor in enhancing the effectiveness of the judiciary. The article proposes practical recommendations aimed at improving judicial training, certification procedures and introducing reflective mechanisms into judicial practice.*

**Keywords:** *judge, professional legal consciousness, judiciary, independence, justice, legal culture, law enforcement.*

### KIRISH

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sud hokimiyatining mustaqilligi va sud qarorlarining adolatligi talablarini kuchaytirdi. Ushbu jarayonlarda eʼtibor koʻproq normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan boʻlsa-da, sudyalarning qarorini shakllantiruvchi ichki professional omillar – xususan sudya kasbiy huquqiy ongi ham muhim rol oʻynaydi. Amaliy tajriba koʻrsatadiki, qanchalik mukammal boʻlmasin qonun matni, uni qayergacha va qanday talqin qilish sudya kasbiy ongiga bogʻliq. Shu sababli sudya kasbiy huquqiy ongi nazariy jihatdan aniqlangan va amaliy jihatdan mustahkamlangani maqsadga muvofiqdir.

Maqolaning vazifasi: 1) kasbiy huquqiy ong tushunchasini hamda uning tarkibiy elementlarini aniqlash; 2) mazkur ongning sud hokimiyati mustaqilligi va adolat tamoyiliga taʼsirini tahlil qilish; 3) milliy normativ va doktrinal bazani baholash va amaliy tavsiyalar berish. Maqola tarkibi IMRAD tamoyili asosida tuzildi.

Sudya kasbiy huquqiy ongi masalasi bevosita alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanmagan boʻlsa-da, huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalari milliy va xorijiy olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Ushbu ilmiy qarashlar sudya kasbiy huquqiy ongining nazariy asoslarini tushunish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Milliy huquqshunos olimlardan Z.M. Islomov huquqiy ongni jamiyat aʼzolarining qonunga, huquq normalariga va huquqiy qadriyatlarga boʻlgan munosabati sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, huquqiy ong jamiyatda qonunlarning qanday qabul qilinishi va bajarilishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Ushbu yondashuv huquqiy tizimning umumiy samaradorligini tushuntiradi, biroq sudyalarning faoliyatiga xos boʻlgan professional qaror qabul qilish jarayonini alohida tahlil qilmaydi.

X.T. Odilqoriyev va N.H. Usmonov huquqiy ongni huquqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uni qonun ustuvorligini taʼminlovchi maʼnaviy asos deb hisoblaydilar. Bu yondashuv sud tizimining barqaror ishlashi uchun muhim boʻlsa-da, sudya

qarorlari ortida turgan kasbiy mas'uliyat va axloqiy tanlovlar masalasini yetarlicha ochib bermaydi.

A.X. Saidov huquqiy madaniyat masalasiga inson omili nuqtai nazaridan yondashib, huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan insonlarning huquqiy qadriyatlarga munosabati bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Ushbu fikr sudya shaxsining kasbiy pozitsiyasi va ichki mas'uliyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham sud qarorlarining faqat qonun matniga emas, balki sudyaning professional dunyoqarashi va ichki motivatsiyasiga bog'liq ekani ko'rsatib berilgan. Skandinaviya huquqiy realizmi vakili A. Ross sud amaliyotida sudya qarori inson omilisiz mavjud bo'lishi mumkin emasligini asoslaydi. Uning fikricha, sud qarori qabul qilinishida sudyaning tajribasi, kasbiy qarashlari va ichki ishonchi muhim rol o'ynaydi.

L. Friedman va H. Berman esa huquqiy tizimning real ishlash mexanizmini jamiyatdagi tarixiy an'analar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'laydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sud institutlarining samaradorligi faqat qonunlar bilan emas, balki jamiyatda shakllangan huquqiy madaniyat bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, Patricia Ewick va Susan Silbey tomonidan ishlab chiqilgan "legal consciousness studies" yondashuvi huquqiy ongni insonlarning kundalik hayotdagi huquqiy xatti-harakatlari orqali o'rganishni taklif etadi. Ushbu metodologiya sudya kasbiy huquqiy ongini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan real holat sifatida baholash imkonini beradi.

Xalqaro miqyosda sudya kasbiy huquqiy ongiga qo'yiladigan talablar Bangalore Principles of Judicial Conduct hujjatida aniq belgilab berilgan. Ushbu hujjatda sudya mustaqilligi, betaraflik, halollik, professional malaka va mas'uliyat asosiy tamoyillar sifatida ko'rsatiladi. Yevropa Inson Huquqlari Sudi amaliyoti ham sud mustaqilligini faqat tashkiliy kafolatlar bilan emas, balki sudyaning ichki betarafliigi va kasbiy mustaqilligi orqali baholaydi.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy ong va huquqiy madaniyat keng ilmiy doirada yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, sudyalarda uchun xos bo'lgan kasbiy huquqiy ong masalasi alohida kompleks tizim sifatida yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy muammosini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotda sudya kasbiy huquqiy ongini chuqurroq tushunish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, sud tizimi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan 1998 yildagi Milliy dastur va 2019 yildagi Prezident farmoni PF-5618 tahlil qilindi. Ushbu hujjatlar sud hokimiyati mustaqilligini huquqiy jihatdan qanday ta'minlayotgani va huquqiy ongni rivojlantirishga qanchalik e'tibor qaratilayotganini aniqlashga yordam berdi.

Shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning yondashuvlari o'zaro solishtirildi. Bu sudya kasbiy huquqiy ongining umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv asosida kasbiy huquqiy ongning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Yakunda sudya kasbiy huquqiy ongining konseptual modeli ishlab chiqildi.

Olib borilgan tahlillar natijasida sudya kasbiy huquqiy ongi oddiy bilimlar majmui emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'langan murakkab professional tizim ekani aniqlandi. Ushbu tizim

sudyaning huquqiy bilimlari, adolat hissi, kasbiy mas'uliyati, ichki mustaqilligi va o'z faoliyatini tanqidiy baholay olish qobiliyatidan iborat.

Sud qarorini qabul qilish jarayoni faqat qonun matnini o'qib, uni qo'llashdan iborat emas. Sudya har bir ishda dalillarni baholaydi, tomonlarning huquqlarini muvozanatlashtiradi, normani real hayotiy vaziyatga moslashtiradi va adolat mezonlarini hisobga oladi. Aynan shu jarayonda sudya kasbiy huquqiy ongi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Sud hokimiyati mustaqilligi ham faqat tashqi kafolatlar bilan cheklanmaydi. Sudyaga berilgan huquqiy himoya mexanizmlari muhim bo'lsa-da, sudyaning ichki professional barqarorligi bo'lmasa, tashqi kafolatlar to'liq ishlamaydi. Sudya kasbiy huquqiy ongi ichki mustaqillikni shakllantirib, sudyaning har qanday bosimga qaramay adolatli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

Adolat tamoyili esa sud faoliyatining asosiy mezoni hisoblanadi. Sudya qaror chiqarishda qonun talablari bilan inson huquqlari, vijdon va adolat tuyg'usi o'rtasida muvozanatni topishi kerak. Bu muvozanatni saqlash sudya kasbiy huquqiy ongi orqali amalga oshadi.

Mazkur tadqiqotda sudya kasbiy huquqiy ongi huquqiy ongning alohida professional shakli sifatida ilmiy asoslab berildi. Sud hokimiyati mustaqilligining faqat tashqi emas, balki ichki kasbiy omillarga ham bog'liqligi konseptual jihatdan ochib berildi. Shuningdek, milliy tajriba xalqaro sud standartlari bilan uyg'unlashtirilgan holda yangi ilmiy yondashuv taklif etildi.

Sud tizimida sudya kasbiy huquqiy ongini rivojlantirish uchun sudyalarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlariga maxsus o'quv modullarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Attestatsiya jarayonlarida sud qarorlarining asoslanganligi va adolat darajasini baholash mezonlari joriy etilishi lozim. Shuningdek, sudyalar o'rtasida tajriba almashish, murakkab ishlarni muhokama qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur. Kasbiy huquqiy ongning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish uchun maxsus monitoring tizimi ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sudya kasbiy huquqiy ongi sud hokimiyati mustaqilligi va adolat tamoyilining ichki tayanchi hisoblanadi. Faqat qonunlarni yangilash yoki tashkiliy islohotlar o'tkazish orqali sud tizimining sifatini oshirish mumkin emas. Sudya kasbiy huquqiy ongi yetarli darajada shakllanmas ekan, islohotlar cheklangan samara beradi. Shu sababli sudya kasbiy huquqiy ongini rivojlantirish sud-huquq sohasidagi islohotlarning muhim strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

### ADABIYOTLAR:

1. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" – Vazirlar Mahkamasi qarori №235 (29.05.1998). Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni PF-5618 "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" (09.01.2019). Lex.uz / NRM.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, sud hokimiyati va sudya mustaqilligi (maqola/konstitutsiya matni).
4. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2016.

5. Odilqoriyev X.T., Usmonov N.H. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent, 2018.
6. Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Toshkent: Fan, 2018.
7. Ross A. On Law and Justice. Berkeley: University of California Press, 1959.
8. Abdrassulov Y.B. "Professional Legal Consciousness of Judges: Concept, Essence and Content" (2023). ResearchGate / Bull. ENU.